



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SAMARQAND VILOYATIDA FONETIK DIALEKTIZMLARNING LINGVOAREAL TALQINI

Payzullayeva Ra'no Maxmudovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti, dotsent (PhD)

Suhrob Ochilov

Navoiy innovatsiyalar universiteti, talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand viloyati hududida tarqalgan qipchoq dialektining ayrim fonetik xususiyatlari lingvoareal nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun tanlangan misollar asosan xalq tilidan, ya'ni ushbu hudud aholisi nutqida faol qo'llaniladigan jonli til materiallari asosida umimlashtirilgan. Maqolada qipchoq dialektiga xos fonetik hodisalar, jumladan singarmonizm, tovush almashinuvi va dialektal shakllarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ilgari faol qo'llanilgan, biroq adabiy til ta'sirida o'z fonetik xususiyatlarini qisman yoki to'liq yo'qotgan ayrim so'zlar ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Samarqand hududidagi qipchoq shevalarining o'ziga xos lingvistik manzarasini aniqlash va o'zbek dialektologiyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qipchoq, dialekt, tafovut, singarmonizm, Samarqand, o'zbek dialektologiyasi, dialektal forma, fonetik o'zgarishlar, adabiy til, lahja, xalq tili.

ЛИНГВОАРЕАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОНЕТИЧЕСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Пайзуллаева Ра'но Махмудовна

Навоийский инновационный университет, доцент (PhD)

Сухроб Очилов

Навоийский инновационный университет, Студент

Аннотация

В данной статье анализируются некоторые фонетические особенности кипчакского диалекта, распространённого на территории Самаркандской области, с лингвоареальной точки зрения. Примеры, использованные в исследовании, в основном заимствованы из живой народной речи жителей данного региона и представлены в обобщённом виде. В статье рассматриваются характерные фонетические явления кипчакского диалекта, включая сингармонизм, звуковые чередования и особенности диалектных форм. Кроме того, анализируются слова, которые ранее активно использовались в диалекте, но под влиянием литературного языка частично или полностью утратили свои фонетические особенности. Результаты исследования имеют важное значение для выявления лингвистической специфики кипчакских говоров Самаркандской области и дальнейшего развития узбекской диалектологии.

Ключевые слова: кипчакский диалект, диалект, различие, сингармонизм, Самарканд, узбекская диалектология, диалектная форма, фонетические изменения, литературный язык, говор, народная речь.

A LINGUO-AREAL INTERPRETATION OF PHONETIC DIALECTISMS IN SAMARKAND REGION

Ra'no Maxmudovna Payzullayeva

Navoi Innovation University, Associate Professor (PhD)

Suhrob Ochilov

Navoi Innovation University, Student

Abstract


This article analyzes certain phonetic features of the Kipchak dialect spoken in the Samarkand region from a linguo-areal perspective. The examples selected for the study are mainly drawn from the living speech of local residents and represent authentic elements of folk language. The paper examines characteristic phonetic phenomena of the Kipchak dialect, including vowel harmony (synharmonism), sound alternations, and specific dialectal forms. It also investigates words that were once widely used in the dialect but have partially or completely lost their distinctive phonetic features under the influence of the literary language. The findings contribute to a better understanding of the linguistic landscape of the Kipchak dialects in the Samarkand region and enrich the field of Uzbek dialectology.

Keywords: Kipchak, dialect, distinction, synharmonism, Samarkand, Uzbek dialectology, dialectal form, phonetic changes, literary language, vernacular, folk speech.

O'zbek tili qadimdan turli lahjalarga boy til sifatida o'rganib kelingan. Buning asosiy sabablaridan biri hududdagi xalqlarning etnik kelib chiqishi va madaniy hayoti bilan izohlanadi. O'zbek tili shakllanishida asos bo'lgan uchta dialekt bir-biridan alohida fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston hududida qipchoq, qarluq hamda o'g'uz lahjalari turli hududiy dialektlar sifatida saqlanib qolgan. Vaqt o'tgan sari bu dialektlar insonlarning "shaharlashishi" hamda barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilga qarab o'z shevalarini o'zgartirib borishi natijasida dialektlardagi ba'zi so'zlar, leksemalar va dialektga xos bo'lgan fonetik xususiyatlardan uzoqlashish, ularning iste'moldan chiqib borishi holatlari ham yuzaga kelmoqda. Ammo ba'zi hududlarda ular o'z sofligini yo'qotmagan. Aslida adabiy tilning shakllanishida yuqorida ta'kidlangan dialektlarning har uchasi ma'lum darajada asos qilib olingan. "Garchand adabiy tilda qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining unsurlari ko'p uchrasa-da, unda qipchoq va o'g'uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o'rinlar mavjud" [1, 31]. Shunday ekan, bu dialektal birliklarga tilimizning asosiy bazasi sifatida qarashimiz hamda ularni saqlab qolishga alohida urg'u berishimiz kerak.

O'zbek adabiy tilining shakllanishida asos bo'lgan uch lahjadan biri qipchoq lahjasi hisoblanadi. Filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev "O'zbek dialektologiyasi" o'quv qo'llanmasida "...o'zbek tilining qipchoq urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to'dasi" [1, 9], deya ta'rif keltiradi. O'zbekiston hududining asosan shimoliy hududlari – Samarqand viloyatining Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Urgut tumanlari; Navoiy viloyatining Paxtachi, Nurota tumanlari hamda Xatirchi tumanining ma'lum hududlarida, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining ayrim tumanlari, vodiylar hamda Orol bo'yida yashovchi xalqlar tilida o'z unsurlarini saqlab qolgan. Toshkent, Sirdaryo, Xorazm, Buxoro viloyatlarida ham qipchoq elementlari uchrab turadi. Bundan tashqari, O'rta Osiyoda yashovchi, O'zbekiston hududiga qo'shni bo'lgan xalqlar tilida ham qipchoq unsurlari ancha faol. (1-xaritada ko'rsatilgan).



(1-xarita)

Yoqub Saidovning ta'kidlashicha, "...qirq, saroy, jo'sh, nayman, qo'ng'iroq, qipchoq, qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut kabi shevalar birlashib, o'zbek tilining qipchoq dialektini tashkil qiladi" [2; 5].

Qipchoq dialekti "a"lashuv va "j"lashuv xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Qipchoq lahjasining shevalari o'z fonetik belgilariga ko'ra j-lashgan bo'lib, ularning ko'pchilik qismi esa a-lashgan, ya'ni 'a' unlisi bo'lgan so'zlar o'z intakt formasida o'sha unlini saqlagan" [1; 37]. Bundan tashqari, adabiy tildan yana ba'zi fonetik va leksik birliklari bilan ham farq qiladi.

Dialektning "j"lashuv xususiyati asosan "y" tovushining xalq tilida o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan: yo'l – jo'l, yurak – jurak, yomg'ir – jomg'ir, yo'q – jo'q so'zlari kabi. Ammo "j"lashuv hodisasi hamma "y" tovushlari bilan almashina olmaydi. Birgina "yo'q" so'zi o'z holida ham, dialektning fonetik

o'zgarishga uchragan holida ham qo'llanadi. Ammo bu ikkala dialektik birlik o'rtasida nozik ma'noviy tafovut mavjud. Adabiy tilda "yo'q" so'zi bir xil shaklga ega bo'lganligi bois uning mazmuni va qo'llanish uslublari farqlanmaydi. Ammo bu so'z qipchoq dialektida ikki xil ma'noda keladi va ikki xil holatda – "yo'q" va "jo'q" shaklida qo'llanib, ular o'rtasida ma'no farqlanadi.

Birinchi ma'nosi inkor etish, qarshilik mazmunida bo'lib, ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligida inkor xususiyatini beradi. Masalan:

– Maktabga borasanmi?

– Yo'q, bormayman.

Bu yerda maktabga bormaslik, ya'ni inkor ma'nosida "yo'q" shakli qo'llanmoqda. Bunday holatlar asosan fe'l bilan beriladigan so'roqlarga javob tarzida uchraydi.

Ikkinchi ma'nosi esa mavjud emaslikni bildirib, "jo'q" shaklida keladi va biror narsa-buyumning bor yoki yo'qligiga nisbatan qo'llanadi. Masalan:

– Senda Iftixor Xonxo'jayevning "Uyg'oq yurak" she'riy to'plami bormi?

– Menda jo'q, lekin kutubxonada bor;

– Qo'y boqib kelsam, dadam uyda jo'q ekan.

Endi bu yerda kitobning mavjud emasligini bildirish uchun qo'llanmoqda va "jo'q" shaklidan foydalanilmoqda. Bu variant asosan otli so'roqlarga javob sifatida qo'llanadi va bu ham adabiy tilda "yo'q" holida qo'llanib, yuqoridagi ma'no tafovuti farqlanmaydi.

Yo'l (jo'l), yomg'ir (jomg'ir), yomon (joman), yurak (jurak), yo'rg'a (jo'rg'a), yetmoq (jetmoq), yuvmoq (juvmoq), yemoq (jemoq) kabi so'zlarda ham "y" fonemasining "j"lashgan shakli uchraydi. Bu ham yuqorida tahlil qilingan tarzda amalga oshgan. Ammo qipchoq shevasida "j"lashuvning yana bir turi mavjud. Ya'ni, adabiy tilda "i" yoki "u" unlilari bilan boshlanuvchi so'zlar oldidan "j" qo'shib talaffuz qilinishi kuzatiladi. Masalan, "ilon" so'zi "jilan" shaklida aytiladi. Yoki "ilik" so'zini ham misol qilib keltirish mumkin. Bu so'z ham qipchoq shevasida "jillik" shaklida aytiladi. Bu so'zlarda "j" undoshi o'ziga xos fonetik xususiyatni namoyon qiladi va o'zidan keyin kelgan "i" unlisining qisqa, sezilar-sezilmas talaffuz qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. "Uzum" leksemasida ham "j" undoshi qo'shib aytiladi ("juzum" tarzida).

Qipchoq dialektining yana bir o'ziga xos fonetik xususiyati "o"ning "a"lashuvi va "a"ning "o"lashuv hodisasidir. Bu hodisa ham singarmonizm hosilasi hisoblanadi. Shevada ayrim so'zlar ushbu fonetik hodisa ta'sirida boshqa so'zlar bilan omonimlik ham hosil qilishi mumkin. Masalan, "oriq" so'zi adabiy tilda ozg'in, kamquvvat degan ma'nolarni beradi. Ammo aynan biz tahlilga tortgan qipchoq shevasida fonetik o'zgarishga yuz tutib, "arriq" holida talaffuz qilinadi. Aksincha, suvning oqish yo'lagi ma'nosini beradigan "ariq" so'zi dialektal fonetikada "oriq" tarzida talaffuz qilinadi.

Samarqand viloyatining Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot tumanlarida "e" unlisi oldidan ham ba'zida "y" tovushi qo'llanishi kuzatiladi. Yechki (echki), yeshshak (eshak), yerkin (erkin), yel-yurt (el-yurt), yeson (eson) kabi fonetik dialektizmlar shular jumlasidandir. Bu dialektal unsurlar hamon ayrim chekka hududlar tilida faol qo'llanib keladi. Lekin aholining markazga intilishi tildagi bu xususiyatlarni iste'molda biroz cheklab, adabiy tilning ta'siri oshishiga sabab bo'lmoqda.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan fonetik o'zgarishlarning deyarli hammasi so'zlashuvda jarangli tovushlar ta'sirini kamaytirish va xalq nutqi uchun qulay bo'lgan jarangsizlik hodisalariga yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Chunki jarangli tovushlarni talaffuz qilish insondan ko'proq havo sarfini talab qiladi. Shu boisdan xalq azaldan o'ziga eng qulay bo'lgan shaklni tanlab, so'zlashuvda qo'llab kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.
2. Qipchoq tillari // Vikipediya, erkin ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qipchoq_tillari
3. Saidov Y. O'zbek dialektologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2021.